



Q'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI



**Q'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**QISHLOQ XO'JALIGIDA BILIM VA  
INNOVATSIYALAR MILLIY MARKAZI  
LALMIKOR DEHQONCHILIK ILMIY TADQIQOT INSTITUTI**

**LALMIKOR DEHQONCHILIK ILMIY-TADQIQOT  
INSTITUTINING *110 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN*  
“LALMIKOR DEHQONCHILIKNING AHAMIYATI,  
ILMIY ASOSLARI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING  
INNOVATSION AGROTEXNOLOGIYALARI”  
MAVZUSIDAGI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

**ILMIY MAQOLALAR TO'PLAMI  
19-may 2023-yil**

**“ILM VA FAN” nashriyoti**

**Jizzax 2023**

кўрсатди. Шу билан бирга дефолиант меъёрини ошириш ҳам унинг пишиқлигига тескари таъсир этиши аниқланди.

Толанинг узилишдаги узайиши ёки унинг эластиклиги (Elongation (Elg)) инструментал тизимдаги динамометрда толанинг фоизларда ифодаланадиган узайишига айтилади. Бу борада олинган маълумотлар дефолиантлар хили ва унинг меъёрлари толанинг эластиклигига ижобий таъсир этганлигини кўрсатди. Яъни эластиклик назорат вариантыга нисбатан 0,2-0,6 % га яхшиланишини таъминлади.

Тадқиқот намуналарини тахлили бўйича толанинг нур қайтариш коэффиценти (Reflectance (Rd)), яъни пахта толаси намунаси юзасидан қайтган ёруғлик миқдори ва сарғишлик даражаси (Yellowness (+b)) кўрсаткичларида бирор бир қонуният кузатилмади.

**Хулосалар.** Дефолиантлар хусусиятларига ва қўлланиш меъёрларига боглиқ ҳолда толанинг сифат кўрсаткичларига турлича таъсир этади. Яъни, толанинг айрим кўрсаткичларига ижобий таъсир этса, айрим белгиларига салбий таъсир этади.

2. Ушбу сифат кўрсаткичларини тахлили дефолиантларни самарали меъёрлари ва муддатларини белгилашда уларни тола сифатига таъсирини ҳам инобатга олиш кераклигини тақозо этади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Адиллов З., Эргашев Д., Тожиёв Р., Хамдамов Ш., Получение хлоратсодержащих дефолиантов, обладающих инсектицидными свойствами /Монография/ Фергана-Винница “Европейская научная платформа” 2021 год, 132 с.

2. Бабушкин Л.Н. Қашқадарё вилоятининг табиати, . Ўз Дав. Нашр. С.Д.У. , 1-жилд, Тошкент-1959.

3. «Дала тажрибаларини ўтказиш услублари» Тошкент, 2007 й.

4. Мирзаолимов А.Н., Пахта дефолиантларининг асосий турлари ва тавсифлари, Oriental Renaissance; Innovative, educational, natural and social sciences, Volume 2, May 2022, 251-259

5. Пахтачилик справочниги, “Меҳнат”, Тошкент 1989 йил

6. Пахтачилик маълумотномаси, “Фан ва технология”, Тошкент, 2016 йил

7. Пахта билан ўтказиладиган дала тажрибаларининг услуби, УзПИТИ Тошкент, 1981 йил.

8. Сугориладиган шароитда дала ва лабораторияда пахтачилик соҳасида ўтказиладиган тажрибалар методикаси, Тошкент, 1962 йил.

9. Симонгулян Н.Г., Муҳаммедханов С.Р., Шафрин А.Н. –Генетика. Селекция и семеноводство хлопчатника, «Меҳнат», Ташкент, 1987 г.

**UO‘K:634.21:632.7:632**

#### **BEHIDA ZARARLI ORGANIZMLAR VA TASHQI ABIOTIK OMILLAR TA‘SIRIDA ZARARLANISHINI XISOBGA OLISH**

Safarov Murtoza Absalomovich

*O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti  
Surxondaryo mintaqaviy filiali katta ilmiy xodimi.*

**Annotatsiya.** Maqolada behi bog‘larida o‘tkazilgan yuqumli va yuqumsiz kasalliklarni dala hamda laboratoriya sharoitida o‘rgangan holda tahlil qilish natijalari haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kasallik, mikroorganizm, monllioz, bakterial kuyish, Bandixon, novda, barg, poya, gul, harorat.

**Аннотация.** В статье рассказывается о результатах анализа инфекционных и неинфекционных заболеваний, проведенных в айвовых садах в полевых и лабораторных условиях.

**Ключевые слова:** Болезнь, микроорганизм, монилиоз, бактериальный ожог, Бандихон, ветка, лист, стебель, цветок, температура

**Abstract.** The article describes the results of the analysis of infectious and non-infectious diseases carried out in quince orchards in the field and laboratory conditions.

**Key words:** Disease, microorganism, moniliosis, fire blight, Bandichon, branch, leaf, stem, flower, temperature.

**Kirish.** O‘zbekiston iqlimi, xususan qish nisbatan iliq, bahor va yoz boshi sernam va iliq bo‘lishi kasallik qo‘zg‘atuvchi mikroorganizmlar qishda hayotchanligini saqlashi, o‘simliklar o‘suv davrida esa kasalliklar tarqalishi va rivojlanishi uchun juda qulay sharoit yaratadi. Natijada ba‘zi kasalliklar har mavsumda va deyarli barcha bog‘larda uchraydi. Kasalliklarga qarshi kurash choralarini o‘tkazilmagan hollarda bu kasalliklarning zarari natijasida (misol uchun, behining monillioz, bakterial kuyish kasalliklari va ba‘zi boshqalar) hosilni butunlay yo‘qotilishiga olib keladi [1]. Mevali daraxtlarga kemiruvchi va so‘ruvchi zararkunandalar ziyon etkazadi. Kemiruvchi zararkunandalardan olma mevaxo‘ri, sharq mevaxo‘ri, so‘ruvchi zararkunandalar shiralar, qalqondorlar, o‘rgimchakkanalar zarar etkazadi [2].

Behi eng qadimiy o‘simliklardan biri bo‘lib, respublikamiz viloyatlarida ekilib, parvarish qilinib kelinmoqda. Urug‘ mevalilar ichida behi daraxti olma va nok daraxtiga nisbatan issiqqa, qurg‘oqchilikka, past haroratga chidamli. Behi mevasi tabobatda ham ishlatiladi. Behi asal bilan bug‘da tayyorlangan damlamasi yo‘tal va shamollashda yaxshi foyda beradi.

Behi asosan daraxt holida o‘stiriladi. Barcha turdagi meva ekinlar qatorida, behi o‘simligini parvarishlashda ham tashqi muhit omillari katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda olimlarimiz tomonidan behi daraxtlarida kasalliklarga qarshi kurashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

**Tadqiqot uslublari.** Yuqumli va yuqumsiz kasalliklarni aniqlash maqsadida tajriba V.F.Peresipkin shkalasi bo‘yicha laboratoriya sharoitida tadqiqotlar o‘tkazildi. Bunda behi bog‘idan yosh novdalar, barglar olib kelindi [3].

V.F.Peresipkin shkalasi o‘simliklarning kasallanish darajasiga qarab ball bo‘yicha baholash. [4]

**Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.** Hozirgi kunda behi maydonlarining Respublika miqyosida turli kasallik va zararkunandalar bilan zararlanishi natijasida qisqarib borayotganligi sababli behi daraxtlarida zararli organizmlarning rivojlanishini aniqlash maqsadida 2022-yil Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani Bog‘bonlar yurti mahallasi Akademik M.Mirzaev nomidagi Bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining Surxondaryo viloyati “Bandixon ilmiy tadqiqot filiali”da olib borildi. Zararlangan daraxtlarga aniq tashxis qo‘yish maqsadida 10 ta daraxtdan 10 dona barg namuna sifatida olib kelindi va laboratoriya sharoitida o‘rganib chiqildi.

Tajriba maqsadida olingan behining yosh novda va barglarida yuqumsiz kasallik ya‘ni tashqi abiotik omil natijasida zararlanishini hisobga olishda Peresipkin shkalasi bo‘yicha ishlab chiqqanimizda quyidagi natijalar olindi (1-jadval).

**1-daraxt** bargning 10 % yuzasi dog‘lar tashqi issiq harorat natijasida dog‘lar bilan qoplangan;

**2-daraxtning** bir tupdagi barglarning 11-22 % i birlamchi o‘rgimchakkana zararlagan keyin tashqi epifit parazitlar ta‘sirida zararlangan;

**3-daraxtning** 16 %i tuproq tarkibida ozuqa (Fe, Ca, K) yetishmovchilik natijasida qurib qolgan.

**4-daraxtning** 15-20% i tuproq qatqaloq va ozuqa yetishmovchilik natijasida qurib qolgan (Fe, Ca, K);

**5-daraxtning** 12-15% tuproq tarkibida ozuqa (Fe, Ca, K) va suv yetishmovchiligi natijasida qurib qolgan;


**6-daraxtning** 11-16% tuproq tarkibida ozuqa ozuqa etishmasligi (Fe, Ca, K) va issiq urishi natijasida qurib qolgan;

**7-daraxtning** 10-19 % bir tupdagi barglarning birlamchi o‘rgimchakkana zararlagan keyin tashqi epifit parazitlar ta‘sirida zararlangan;

**8-daraxtning** 12 % yuzasi dog‘lar tashqi issiq urishi natijasida dog‘lar bilan qoplangan;

**9-daraxtning** 13-16% tuproq tarkibida ozuqa ozuqa etishmasligi (Fe, Ca, K) va harorat ko'tarilish natijasida qurib qolgan;

**10-daraxtning** 9-14% Suv etishmasligi oqibatida qurib qolgan [3].



*1-2-расм. Zararlangan behi barglari*

**Akademik M.Mirzaev nomidagi Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani**  
**Bandixon filialining behi daraxtlarida kasalliklarni aniqlash uchun olingan namunalar bo'yicha**

Namunalar soni	Kasallik, zararkunanda  uchradi+,  uchramadi-	O'simlikda ozuqa etishmasligi Fe+++ Ca++ K+	O'simlikga ob-havoning ta'siri; issiq urishi +, ob-havo ta'siri yo'q-	Suv etishmasligi +	Behi daraxtida biotik va abiotik omil ta'siri			
					Poya Poyada qora dog'lar++, Poya qurishi+ Belgilar yo'q-	Barg Barglarning sarg'ayishi++, Barglarning qurishi+ Belgilar yo'q-	Meva Mevaning kichrayishi++, Mevalarni burushishi+ Belgilar yo'q-	Gul Gullar to'kllishi+ Belgilar yo'q-
1.	-	-	+	-	++	+	-	+
2.	+	-	-	-	-	++	-	-
3.	-	++	+	-	+	+	-	-
4.	-	++	-	-	-	+	-	-
5.	-	+	-	+	+	-	+	-
6.	-	+++	+	-	+	+	++	-
7.	+	-	-	-	-	++	-	-
8.	-	-	+	-	+	-	-	+
9.	-	+	+	-	+	++	-	-
10.	-	-	-	+	+	+	+	-

Behida zamburug' kasalliklar uchramadi. Zararkunandalar bilan oz miqdorda zararlanganligi aniqlandi. O'simlikda abiotik omil (jazirama issiq, garmsel shamol, tuproqning sho'rliigi, ozuqa etishmasligi kabi) lar oqibatida behi daraxtlarida o'zgarish holatlari kuzatildi.

**Xulosa.** Biz o'tkazgan monitoring kuzatuvlarimiz va ilmiy tadqiqot ishiarimizdan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, agrotexnik ishiarni kuz va bahor oylarida daraxt shoxlarini butash, daraxtlar orasini shamol aylanishini yaxshilash, bog'larga mineral o'g'itlar bilan birgalikda sug'orish ishiarni vaqtida amalga oshirish lozimligini ko'rsatdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Hamraev A.Sh., Azimov J.A., Niyozov T.B. va b. Bog', tokzorlarning zarakunandalari, kasalliklari va ularga qarshi kurash tizimi. Toshkent: "Fan", 1995.

2. Hasanov B.A., Ochilov R.O., Xolmurodov E.A., Gulmurodov R.A. Mevali va yong'oq mevali daraxtlar, sitrus, rezavor mevali butalar hamda tok kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari. Toshkent: "Office Print", 2010.

3. Пересыпкин В.Ф. Сельскохозяйственная фитопатология. М.: "Колос" 1989.

4. Пересыпкин В.Ф., Тютюрев С.Л., Баталова Т.С. Болезни зерновых культур при интенсивных технологиях их возделывания. М.: ВО «Агропромиздат», 1991.

**UO'K: 581.9. 527.4**

### **O'ZBEKISTON FLORASIGA UCHRAYDIGAN O'ZBEKISTON MLLIY GERBARIYSIDA SAQLANAYOTGAN DRABA L. TURKUMI NAMUNALAR TAHLILI (2000-2021 MISOLIDA)**

Quyoshbek Ziyadullayev Obloqul o'g'li  
*Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston Milliy gerbariysida saqlanayotgan O'zbekiston florasiga uchraydigan *Draba L. turkumining kam sonda Terilgan namunalar tahlili (2000-2021 misolida)* keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** *Draba albertii, Draba arseniewii, Draba huetii, Draba lanceolate*

**Аннотация.** В статье представлен анализ небольшого количества отобранных образцов флоры Узбекистана *Draba L.*, хранящихся в Национальном гербарии Узбекистана (в случае 2000-2021 гг).

**Ключевые слова:** *Draba albertii, Draba arseniewii, Draba huetii, Draba lanceolate.*

**Abstract.** The article presents the analysis of a small number of selected samples of the flora of Uzbekistan *Draba L.* stored in the National Herbarium of Uzbekistan (in the case of 2000-2021).

**Keywords:** *Draba albertii, Draba arseniewii, Draba huetii, Draba lanceolate*

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika instituti O'zbekiston Milliy gerbariysi noyob ilmiy obyektida saqlanayotgan gerbariy namunalari orasida ikki asrga tengdosh namunalar borki, ular tabiatan asl holati kabi saqlanmoqda. Bu noyob ilmiy obyektida 1,3 millionga yaqin gerbariy namunalari saqlanadi. Prezidentimizning 2018-yil 17-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida institutning noyob ilmiy obyekti- O'zbekiston Milliy gerbariysi milliy ahamiyatga ega gerbariy deb tan olindi. Milliy gerbariy 1993-yil Sankt-Peterburgda YUNESKO tomonidan gerbariy larga bag'ishlab tashkil etilgan birinchi xalqaro konferensiyada jahon ahamiyatiga molik gerbariy, deb e'lon qilingan. O'zbekiston Milliy gerbariysi Markaziy Osiyoda birinchi, MDH mamlakatlari orasida esa ikkinchi, qit'amizda Xitoy (PE), Indoneziya (BO), Hindiston (CAL), Yaponiyadan (TNS) keyin oltinchi, dunyoda (150 mamlakat) 40-o'rinda turadi. O'zbekiston Milliy gerbariysi namunalari O'rta Osiyo, Mongoliya, Xitoy, Rossiya, Ukraina, hatto Shimoliy Afrika davlatlaridan yig'ib jamlangan. Gerbariy kolleksiyalarida saqlanayotgan ma'lumotlar vaqt o'tishi bilan noyoblashib boradi va ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

